

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT VILOYATI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**S.J.Achilova**

# **DISLALIYA. DIZARTRIYA**

*Pedagogika universitet hamda institutlarning defektologiya  
yo‘nalishida ta‘lim olayotgan talabalari uchun  
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT  
«ISHONCHLI HAMKOR»  
2021

UO‘K 37:81'342.5(075.8)

KBK 88.3я73

A 92

**Taqrizchilar:**

**F.U.Qodirova** – TVCHDPI Defektologiya kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori.

**G.A.Tursunova** – Toshkent viloyati Chirchiq shahar 9 - umumta'lim maktab o'qituvchi – logopedi Xalq ta'limi a'lochisi.

Ushbu o'quv qo'llanma oliy ta'lim talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, dislaliya nutq kamchiligi va dizartriya nutq kamchiligining ilmiy nazariy jihatdan o'rganiladi. Shuningdek, dislaliya va dizartriya nutq kamchiligining turlari, bartaraf etishning korreksion-pedagogik ishlari ochib berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 31 maydagi 237-sonli buyrug'iga asosan o'quv qo'llanma sifatida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7092-7-0

---

---

## KIRISH

So‘nggi yillarda jahon miqyosida maktab va maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga va maxsus ta‘lim muassasalariga jalb qilish bo‘yicha bir qancha ishlar olib borilayotgan bo‘lib, jalb qilingan bolalarni hayotga tayyorlash, zarur bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish ishlari olib borilmoqda. Maktab va maktabgacha tarbiyaning qanchalik muhim ekanligini bugun barcha yaxshi biladi. Shu boisdan ham maktabgacha yoshdagi bolalarga to‘g‘ri ta‘lim- tarbiya berish eng muhim masalalardan biri bo‘lib qolaveradi. Jumladan, maxsus maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ham dizartrik bolalar bilan maxsus pedagogik ish jarayoni tashkil qilingan bo‘lib, bolalarning nutq nuqsonlarini bartaraf etish, ularning bilish jarayonlari ustida ishlash, bilim va malaka, ko‘nikmalarini rivojlantirish kabi ishlar tashkil qilinib bormoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqida kamchiliklar kuzatilishi uning ta‘lim olishini murakkablashtiradi. Jumladan, dislaliya va dizartriya nutq kamchiligi bundan mustasno emaslar.

Bugungi kunda jahon miqyosida nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarni erta aniqlash, ularni maxsus ta‘limga jalb qilish, korreksion - pedagogik ishni tashkil etish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Shuningdek, nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarni nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo‘yicha bir qancha olimlar ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Ushbu ilmiy izlanishlar yordamida bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarning kelib chiqish sabablari va nutq nuqsonlarini bartaraf etish bo‘yicha korreksion logopedik ishlar tashkil qilinmoqda.

Bolaning rivojlanishi va o‘sishi uzluksiz davom etadigan jarayondir. Bu davrda uning shaxs sifatida shakllanishi, ilk bor olamni atrofidagi buyumlar orqali anglab, undan o‘zicha ma‘no topishga intilishi, qiziqish va hissiyotlari rivojlanishini kuzatamiz.

Hayotning har bir davri, rivojlanish xususiyatlari va ehtiyojlariga ko'ra o'ziga xos bosqichlarga ega. Bolaning o'sib, ulg'ayishida maktabgacha bo'lgan davrni shular sirasiga kiritish mumkin. Bolalar juda tez o'sish, rivojlanish va o'zgarishlar ichida yashaydilar. Bu farzand tarbiyasida aynan shu palla qanchalik ahamiyatli ekanining yana bir isbotidir.

Maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, shu bilan birga maktabga tayyorlagan holda shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida: "Bu ta'lim 6-7 yoshgacha oilada, bolalar bog'chasida va mulk shaklidan qat'iy nazar, boshqa ta'lim muassasalarida olib boriladi",- deb ta'kidlangan.

---

---

## I BOB. DISLALIYA

### 1§. DISLALIYA NUTQ KAMCHILIGINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

#### **Reja:**

1. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o‘rganishda rus va o‘zbek olimlarning ishlari.
2. Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni o‘rganishda 16-18 asrlarda chet-el olimlarning qo‘shgan hissasi.

Bolada tovushni to‘g‘ri talaffuz qilish asosan 5 yoshlarda shakllanadi. Bolalarda to‘g‘ri talaffuzni tarbiyalash ishi nutqning har tomonlama rivoji bilan bevosita bog‘liqdir. Maktabgacha muassasalarda lug‘atni boyitishga, to‘g‘ri talaffuz qoidalarini egallashga, grammatik shakllar bilan tanishtirishga katta e‘tibor beriladi.

Nutqning tovush sistemasi hozirda shakl birligi (fonetika) va mazmuni (fonologiya), “ifodalash rejasi” va “mazmun rejasi” birligi, nutq va til vositalari birligi sifatida ko‘rib chiqildi.

S.N.Trubetskoy yozganidek, tovush haqida ikki fanni bilish darkor – biri nutqda, ikkinchisi tilda o‘z ifodasini topishi kerak. Tekshirishlardan kelib chiqib, tovush haqida ikkita fan tafovut qilinadi – muloqot maqsadida qo‘llaniladigan tovush signallari va jismoniy ko‘rinish bo‘lgan konkret tovushlar.

Tovush ta’sirotlariga bo‘lgan reaksiya yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda kuzatiladi. Reaksiya tana qimirlashi, imlash, nafas va pulsning o‘zgarishi ko‘rinishida bo‘ladi. Bolaning ikki haftaligida eshitish dominantining yuzaga kelganligi haqida xabar beruvchi, tovush ta’sirotlari ostida ba’zi bir tana harakatlarining va yig‘ining to‘xtalganligi kuzatiladi. To‘rtinchi haftada alla ta’sirida bolada tinchlanish holati kuzatiladi. Bularning hammasi shartsiz reflekslardir.

Yetti oylikdan boshlab, bola onaning ba’zi bir tovushlariga ta’sir